

SURXON VOHASIDA YETISHIB CHIQQAN BAXSHILAR

Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi
dilnozaxushbaxtova@dtpi.uz

Surxondaryo viloyatining barcha tumanlarida Qashqadaryoning G'uzor, Qamashi va Dehqonobod tumanlarida, Turkmanistonning Chorshangi, Tojikistonning Qabadiyon, Shahartuz tumanlarida Sherobod baxshichilik maktabi an'analari o'zining qadimiyligini yo'qotmay baxshi-shoirilar tomonidan kuylanib kelingan. Kesovli jo'zlar avlodidan bo'lmish Egamberdi yuzboshi 1869 yilda Hisorsoyning Xayriobod qishlog'ida dunyoga kelib, shu yerda voyaga yetadi. Aytishlaricha, Egamberdi yuzboshi o'zi soz chalishni bilmagan. Lekin, qayerga bormasin, o'sha yerdagi sozanda va do'mbirachilar uning yonida turib, soz chalishgan. Masalan, Egamberdi yuzboshiga Anbarsoy qishloqlari atrofida Otamurod ismli do'mbirachi, Dalvarzin tepa tomonlarda Allanazar degan kishi, Oqqapchig'ay elida Qurbonmurod, Vaxshivor va Xo'jasoat tomonlarda Xo'jasoatlik Janjal bobo soz chalib, unga jo'r bo'lib turishgan. Keyinchalik unga ko'pincha hamqishlog'i Mirza polvon to'y - marakalarda hamrohlik qilgan. Egamberdi yuzboshi "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Zulayho pari", "Avazxon", "Nurali", "Malla savdogar" kabi o'ttizdan ortiq dostonni yod olib, davralarda aytib yurgan. Baxshi savodsiz bo'lgan, maktab ko'rmagan, xat tanimagan. Ammo xudo bergan iste'dod bilan bir eshitgan narsasini yodida saqlab qola bilgan. Ammo yodlab olgan so'zlarini to'tidek takrorlab yurishni ham ep bilmagan. Balki, bir dostonni o'n bor kuylasa, har safar uni yangilab, yangicha ohang, so'z, rang berib kuylagan. "Alpomish" dostonini olti kecha kunduz, "Malla savdogar" dostonini uch kechakunduz, "Zulayho pari" "Zulfizar" dostonlarini esa bir kecha-kunduz davomida betinim kuylaganiga shohidlar haligacha hayratlanib so'zlab yurishadi.

Qosim baxshi XIX asrning o'rtalarida Sherobod tumanida yashab o'tgan bu buyuk baxshi "Qosim baxshi", "Qosim yuzboshi", "Qosimko'r shoir" kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. U sherobodlik Bobo shoirning eng iqtidorli shogirdi hisoblangan. Sherobod dostonchilik maktabi an'anasini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan Qosim shoir ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Jumladan, sherobodlik Shernazar Berdinazar o'g'li, Xolmurod Qosim o'g'li, Alim yuzboshi singari chechan va topqir baxshilarni yetishtirgan. Alim baxshi XIX asrning o'rtalari - XX asrning boshlarida Sherobodning Beshqo'ton qishlog'ida yashab o'tgan mashhur dostonchi Alim baxshi "Alpomish", "Ollonazar Olchinbek", shuningdek, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarini mahurat bilan ijro etgan. Xalq orasida "Alim yuzboshi" nomini olgan bu baxshi doston ijro etish sirlarini Qosim baxshidan o'rgangan. O'z navbatida Xoliyor Abdulkarim o'g'li, Xoliyor Alim o'g'li singari shogirdlar chiqargan. Taxminan 1920-1921 yillar oralig'ida vafot etgan. Shernazar Berdinazar o'g'li el orasida Sherna baxshi sifatida e'tirof etilgan. Shernazar baxshi 1855 yilda tug'ilib 1915 yilda vafot etgan baxshi shoir hisoblanadi. Shernazar baxshining ustozlari Qosimqur bo'lgan. Qosimqur esa XIX asr boshlarida vohada yashab ijod etgan mashhur Bobo baxshidan ta'lim olgan. Sherna o'z davrining eng chechan, so'zga boy xalq baxshilaridan bo'lib, shogird yetishtirishda ham unga yetishadigan bo'lmagan. Jumladan, Mardonaqul Avliyaqul o'g'li, Ahmad yuzboshi, Saodat Jo'ra Eshmirza o'g'li, Xudoyqul Loqay, Eson Shomurod o'g'li va boshqa talantli shoirlar bevosita Shernazar Berdinazar o'g'lining shogirdlari sanaladi. Shernazar baxshi doston kuylash borasida ham o'ziga xos tarzda dong taratgan baxshi-shoir bo'lgan¹. Shernazar baxshi nomi bilan bog'langan 50 dan ortiq dostonning ro'yxatga olinishi ham Sherna baxshi repertuarining nihoyatda boy va rangbarang ekanligidan dalolat beradi. U

¹ O'zbekiston Milliy arxivi. Fond R-94. 1-ro'yxat.

do‘mbira chertib qo‘shiq aytsa, yo‘ldan o‘tayotgan ot va tuya karvonlari ilgari yurmay to‘xtab qolar ekan. Shernaning to‘xtalib, “...boshqa joylarda noma’lum bir qator syujetlarni, ayrim qadimiy motiv va tasavvurlarini saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir” deb baho bergan edi².

O‘zbekiston epik arealida, xususan, Surxondaryo viloyati baxshilari repertuarida hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, jonli ijro holatida rivojlanib, yanada takomillashib bormoqda. Dostonning Surxondaryo vohasi dostonchilik maktablari vakillarining repertuarida mavjud bo‘lgan variantlari syujet qurilishining o‘ziga xosligi, matnining badiiy jihatdan mukammalligi va Alpomish haqidagi bir necha dostonni o‘z ichiga olgan nasliy turkumlik sifatida shakllanganligi bilan ajralib turadi.

“Alpomish” dostoni qo‘ng‘irot versiyasining takomillashishiga katta hissa qo‘shgan Surxondaryo vohasi baxshichiligida uchta dostonchilik maktabi, ya‘ni Sherobod, Beshqo‘ton va Boysun baxshichilik markazlari mavjud. XIX asrning o‘rtalarida Sherobod tumanida yashab, el orasida “Qosim baxshi”, “Qosim yuzboshi” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan Qosim shoir, Sherobod tumanining Istara qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Azon qishlog‘ida yetishib chiqqan ulkan so‘z ustasi Shernazar Berdinazar o‘g‘li (Sherna baxshi, Sherna yuzboshi) – Sherobod dostonchilik maktabi an‘analariga asos solishgan³.

XIX asrning o‘rtalari - XX asrning boshlarida Sherobodning Beshqo‘ton qishlog‘ida yashab o‘tgan mashhur dostonchi Alim baxshi “Alpomish”, “Ollonzar Olchinbek”, shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarini mahorat bilan ijro etib, keyinchalik o‘ziga xos epik repertuari va ijro usuli bilan farqlanib turadigan “Beshqo‘ton dostonchilik maktabi”ning asoschisiga aylangan. Boysun dostonchilik maktabiga esa 1827–1902 yillarda yashab, ijod qilgan Abdurasul yuzboshi ismli mashhur baxshi asos solgan⁴.

XIX asrda Sherobod, Boysun, Beshqo‘ton, dostonchilik maktablarida katta ustoz-shogirdlar muntazam ijodlari bilan xalqimizning vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik va jasurlikka oid manbalar bilan ongini yuksaltirib bordilar. XIX asrda Sherobod, Boysun, Beshqo‘ton, Chiroqchi, Qamay dostonchilik maktablarida katta ustoz-shogirdlar muntazam ijodlari bilan xalqimizning vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik va jasurlikka oid manbalar bilan ongini yuksaltirib bordilar.

Mashhur o‘zbek baxshisi Sherna Bedinazar o‘g‘li 1866 yili hozirgi Sherobod tumanidagi Ozan qishlog‘ida boy xonadonda tug‘ilib, yetti yoshda baxshi sifatida taniladi. Otasi Bedinazarboyning aytishicha yetti yoshli Sherna uxlab yotgan joyida Xizir Bobo tushiga kirib: “Bolam, tanglayinga beraymi, manglayingami?” deganda bola qo‘rqanidan “tanglayimga” bering deb aytgan. Shunda bobo: “Ko‘zingni yum, og‘zingni och!” deydi Bolani og‘ziga tuflaydi. Shundan keyin Sherna baxshi ko‘zini ochsa bobo yo‘q, u joydan turib tayog‘ini do‘mbira qilib chalib, uyga ham bormay, qishloq oralab qo‘shiq aytib ketaveradi. G‘oyib bo‘lgan Shernani ota-onasi uch kun izlab topaolmaydilar. Shunda Denov tomondan kelgan bir savdogar uni ota-onasiga xabar beradi. Savdogar shunday deydi: -Denov shahrida odamlar gavjum ekan. Men biror narsa sotilayotgan bo‘lsa kerak deb borsam, yetti yoshlar chamasidagi bir bola bo‘zlab g‘azal aytib turibdi, eshtayotgan yig‘lab turishibdi. Bola sira ko‘zini ochmaydi, qaramaydi. Men ham bir siqim tanga tashlab, izimga qaytdim. Berdinazarboy bu gapni eshitib, to‘rt otlig bilan Denovga borib, Denov bozoridan tayoqqa suyanib g‘azal aytayotgan Shernani kuradi. Otasi tushib, o‘g‘lini bir shapaloq urib, ko‘tarib oladi, buni kurgan odamlar unga tashlanib, nimaga bolani urasan deyshadi. Otasi bu bola o‘g‘li ekanligini, bir necha kundan buyon axtarib yurganligini aytadi. Sherna baxshi uyiga kelib do‘mbirani quliga olib cherta boshlaydi. Sherna baxshi to‘ylardan birida qo‘liga do‘mbirani olib shunday deydi: “Osmonda yo‘l bo‘ladi, qog‘ozdan pul bo‘ladi, Kun chiqardan suv keladi. Sherobod cho‘li obod bo‘ladi.

² Ro‘zi Mustafuqulov. Nazarkarda Sherna baxshi. Surxon tongi. 1998 yil 27 yanvar.

³ Eshboyev Turob. Surxondaryoda bir zo‘r baxshi bor edi.... Surxon tongi. 1998 yil 3 mart

⁴ Zarifov H. O‘zbek folkloristikasi tarixidan//O‘zbek folklori masalalari.-T.: Fan, 1970

Shunisi yomon bo'ladiki, ko'p kelinlar tul qoladi. Qo'y go'shti qog'ozga o'raladi". Tabiiyki, odamlar bu gaplarga hayron bo'ldilar, birov ishonib, birov ishonmadi⁵. Bu hikoyadan Sherna baxshining so'zga chechan, o'tkir zehnlil, hozirjavob, kishilarning didi va kayfiyatiga moslab kuylovchi san'atkor bo'lganligi

e'tirof etiladi. Fikrimizni Shernadan ta'lim olgan Rajab baxshi Normurod o'g'lining 1968 yilda aytgan quyidagi so'zlari bilan isbotlaydi: «Shernaga hech kim teng kelolmas edi. U kechasi o'qir, kunduzi aytar edi. Unda barcha dostonlar tarixi haqidagi kitob mavjud edi», - degan edi. Sherna baxshi juda katta ustoz-shogirdlik maktabiga asos solgan baxshi shoir sanaladi. Shernazar baxshining ishonchli shogirdlaridan biri Alim yuzboshidir. Alim yuzboshi ham «Go'ro'g'li» va «Alpomish» turkumidagi dostonlarni ijro etish bilan bir qatorda yangi doston va termalar ham kuylagan. Alim yuzboshi yoshi jihatdan Shernazar baxshidan biroz katta bo'lsada, baxshichilik sirlarini o'rganishda uni o'ziga ustoz deb qabul qilgan.

Sherna baxshi bilan bir qatorda Alim yuzboshi ham bir qancha shogirdlar tayyorlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov S.N., Pardayev T.R. "Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi". Toshkent., "Muharrir", 2013.
2. Tursunov S.N., Pardayev T.R. "O'zbekiston janubiy hududlarida moddiy madaniyat tarixi".. Toshkent., "Muharrir".2013.
3. Tursunov S.N."Sherobod tarixidan lavhalar".Toshkent., "Yangi nashr", 2014.
4. Tursunov S.N., Pardayev T.R. "O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi". "Tafakkur", 2015.
5. Tursunov S.N., Pardayev T.R. "O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi". Termiz "Surxon-Nashr", 2017.

⁵ Ro'zi Mustafuqulov. Nazarkarda Sherna baxshi. Surxon tongi. 1998 yil 27 yanvar.